



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 17-avgust, payshanba,

98 (23.819)-son

KUN
HIKMATI
Ko'p narsani
emas, balki
kerakli narsani
bilgan odam
donodir

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKİSTON UCHUN!

Payariq
tumaniga
hokim
tayinlandi



16-avgust kuni xalq deputatlari Payariq tumani Ken-gashining navbatdan tashqari sessiyasi o'tkazildi.

Viloyat hokimi E.Turdimov ishtirok etgan sessiyada tashkiliy masala ko'rildi.

Shu yilning 11-iyul kuni Prezident raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Payariq tumani hokimi Z.Ergashev vazifasidan ozod etilgandi.

Viloyat hokimi shu paytgacha viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandil bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlagan Isroil Ismoilovich Jabborovni Payariq tumani hokimi vazifasidan tashqari tashkiliy masala ko'rildi.

I.Jabborov tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hudud aholisi turmush darajasini oshirish yuzasidan taqdimat qildi.

Deputatlar I.Jabborovni Payariq tumani hokimi lavozimiga tasdiqladilar.

Sessiyada viloyat hokimi E.Turdimov Payariqning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish, sanoatni rivojlantirish, investitsiya va eksport hajmini oshirish yuzasidan tuman rahbarlari oldida turgan vazifalarga to'xtaldi.



TURKIY DAVLATLAR SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLARI SAMARQANDDA

Samarqandda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar sog'lioni saqlash vazirlarining yig'ilishi hamda Turkiy dunyo tibbiyat kongressi bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov, Ozarbayjon Respublikasi Sog'lioni saqlash vaziri Teymur Musayev, Qozog'iston Respublikasi Sog'lioni saqlash vaziri Ajar Giniyat, Turkiya Respublikasi Sog'lioni saqlash vaziri Fahrettin Koja, Qirg'iz Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirining birinchisi o'rnibosari Tilek Mamadaliev, shuningdek, Tatariston Respublikasi Sog'lioni saqlash vaziri Marsel Minnulin ishtirok etdi.

Tadbirlarning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov, Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanbek Omuraliyev so'zga chiqib, ishtirokhilari qutladi.

Bugungi kunda Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro nufuzi oshib, unga a'zo va kuzatuvchi davlatlar o'tasida turi sohalarga oid ko'p tonomilama hamkorlik aloqlari mustahkmlanib borayotgani ta'kidlandi.

Xususan, tibbiyot sohasidagi hamkorlik tashkilotga a'zo davlatlar aholisiga yuqori sifatlari, zamonaviy tibbiy xizmat ko'satisfida muhim ahamiyatga ega bo'limoqda. Bu yo'nalishda davlatlarning bir-birini qo'llab-quvvatlash, ko'maklashishga asoslangan hamkorligi natijasida tibbiy xizmat ko'satisfi darajasi yuksalmoqda.

Kongresda sog'lioni saqlash vazirlari so'zga chiqib, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan hamkorlikning bugungi holati va istiqbollarli, o'z mamlakatlarib tibbiyot sohasida erishilayotgan natijalar haqida o'z fikrlarini bildirdi. Yangi tashabbus va g'oyalalar o'rta ga tashlandi.

– Yangi O'zbekiston sog'lioni saqlash tizimida "Inson qadri uchun" degan tamoyil asosida keng ko'lamlari transformatsiya jarayonlari boshlangan, – dedi A.Inoyatov. – Jumladan, davlatimiz rahbari tashhabbusi bilan keyingi 7 yilda tizimni isloh etish bo'yicha 200 dan ziyod huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Tibbiyotga ajratilayotgan mablag'lari miqdori 6 barobarga oshirilib, qariyb 30 trillion so'mni tashkil qilmoqda. Davlat

tomonidan bepul ko'rsatiladigan "kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmi" eng ko'p uchrayotgan kasalliklar va murojaatlardan kelib chiqqan holda shakllantirildi. Tibbiyotning birlamchi bo'g'inidagi 3 mingdan ortiq tibbiyot muassasalari moddiy-teknika bazasi yangilanib, tibbiy xodimlari salohiyati oshib bormoqda. Birlamchi tibbiyotni aholiga yaqinlashtirish maqsadida birgina 2022-yilda 136 ta poliklinika va 1300 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etilib, ularning soni 2086 tadan 3522 taga yetkazildi. Natijada 4,5 million nafr aholiga birlamchi tibbiyot yaqinlashtirildi. 25 ta ixtisoslashtirilgan markaz va ularning 14 ta hududdagi filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Buyrak va jigar ko'chirib o'tkazish kabi yuqori texnologik operatsiyalar viloyatlar, hatto tumanlar darajasida muvaffaqiyatlari bajarilishi yo'lg'a qo'yildi. Hukumat kafolati ostida yurtimizda tibbiyot sohasi bo'yicha umumiy qiymati 877 million AQSh dollariga teng 11 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

Kongresda Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi, a'zo davlatlar va Tatariston sog'lioni saqlash vazirlarini rahbariyati "O'zbekiston Respublikasi sog'lioni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Shundan so'ng O'zbekiston – Turkiya tibbiyot forumi o'tkazildi.

Unda ikki mamlakat sog'lioni saqlash vazirlarini, tizim mas'ullari, tibbiyot oly o'quv yurtlari, yetakchi davlash-profilaktika muassasalari, xususiy klinikalar, farmatsevtika kompaniyalari rahbarlari va olimlar ishtirok etdi.

Hozirgi paytda O'zbekiston va Turkiya sog'lioni saqlash vazirlarini o'tasida hamkorlik to'g'risida amaldagi memorandum mavjud. Ungra muvofig, 2019-yil dekabr va 2022-yil mart oylarida Turkiya Sog'lioni saqlash vaziri yurtimizga tashrif buyurdi, 2019-yilda sog'lioni saqlash va farmatsevtika sohalari bo'yicha birinchisi O'zbekiston – Turkiya forumi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimiz Turkiya tonomidan an'anaviy ravishda "Sog'lioni saqlash haftaligi" tashkil etib ke-linmoqda. Ushbu tadbirlar doirasida oftalmologiya, kardiologiya, ginekologiya, LOR, umumiy jarrolik va urologiya yo'nalishlari bo'yicha shifokor maslahatlari, operatsiyalar va treninglar o'tkazildi.

Qardosh mamlakat ko'magida O'zbekistonning turli viloyatlaridagi perinatal markazlari va tug'ruq ma-jimualari zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Turkiyaning Bashkent universiteti rektori, Juhon transplantologlari jamiyatni prezidenti Mehmet Xaberl boshchiligidagi ilk bor kichik yoshli bemordra buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti muvaffaqiyatlari bajarildi.

Yaqinda Toshkent shahrida faoliyatini boshlaydigan Hamshiralar akademiyasida "Sog'liq bilimlari" universitetining hamshiralik ishi fakulteti ochiladi.

Turkiya tomoni O'zbekistonda sog'lioni saqlash tizimining transformatsiyasini qo'llab-quvvatlash, sohada axborot tizimlarini joriy etish, shoshilinch tibbiy yordam xizmati faoliyatini Turkiya modeli asosida tashkil etish, tibbiy sug'urta tizimini yo'lg'a qo'yish, soha kadrlarini o'qitish, malakasini oshirish, birlgilikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, qo'shma investitsiyaviy loylar harnari ro'yobga chiqarish kabi yo'nalishlarda hamkorlik qilishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

Forum yakunida ikki davlat tibbiyot muassasalarini, sohada ixtisoslashgan oly o'quv yurtlari va ularning klinikalarini, xususiy sektor korxonalarini va farmatsevtika kompaniyalari o'tasida o'zaro manfaatli kelishuvlarga erishilib, memorandum hamda hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Turkiy davlatlar tashkiloti sog'lioni saqlash vazirlarining uchrashuvida vazirlar tonomidan hamkorlikning istiqbollari yuzasidan muhim takliflar bildirildi.

Jumladan, O'zbekiston tonomini tashkilotga a'zo mamlakatlar sog'lioni saqlash vazirlarini o'tasidagi hamkorlikni yanada rivojlantrish, qardosh davlatlar tahkamash, Turkiy tibbiyot oly ta'lim muassasalari aloqalarini mustahkmalash, Turkiy tibbiyot oly ta'lim muassasalari assotsiatsiyasi tuzish, tashkilotga a'zo davlatlarning tibbiyot sohasida berilgan diplomlari o'zaro tan olinishini ta'minlash, Turkiy davlatlar tibbiyot forumini o'tkazish bilan bog'liq takliflarni ilgari surdi.

Xalqaro tadbir doirasida tibbiyot ko'rgazmasi ham tashkil etildi.

G'olib HASANOV.

Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.



SIFATLI TA'LIM – KUCHLI JAMIYAT ERTAGA VILOYATIMIZDA II USTOZLAR MILLIY FORUMI O'TKAZILADI

MAKTABNI SALOHIYATLI RAHBAR BOSHQARADI

Ta'lim tizimida islohotlarga keng yo'l ochilgan bir paytda maktabdagi tanish-bilishchilik, dars soatlari taqsimoti, qarindoshlarning ta'lim dargohida rahbarlik vazifasida ishlashi kabi muammolar o'z yechimini topishi kerak. Bu borada qonunchilikka kiritilayotgan o'zgarishlar quvonarli, ammo hamma ham yangi tartibdan xabardor emas. Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Shokir SULTONOV bilan suhabatimiz shu kabi masalalarga qaratildi.

- Bugun ijtimoiy tarmoqlar-da keng muhokamalarga sabab bo'layotgan savol – maktab direktorini kim ishdan bo'shatadi?

- Har qanday soha vakil qonunda belgilangan tartibda ish beruvchi tonomidan ishdan olinadi. Bu jarayonda ish beruvchining tashhabbusi bilan yoki xodim, rahbar o'z arizasiga binoan ishdan ozod etiladi. Albatta, maktab direktorlarini ishga olish to'g'risidagi buyruq viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tonomidan amalga oshiriladi. Ish beruvchi sifatida boshqarma boshlig'i maktab direktorini ishdan bo'shatish masalasiga mas'ul shaxs.

(Davomi 2-sahifada) >>>

raqomlarda

2022-2023-o'quv yilida viloyatdagi umumta'lim maktablarini 111181 nafr bitiruvchi tugatdi.

Ularning 65726 nafari 9-sinf, 45455 nafari 11-sinf o'quvchilaridir.

72 nafariga maxsus maktablarning sertifikatlari berilgan.

9-sinf bitiruvchilarining 3845 nafari a'lo darajali shahodatnomaga ega bo'ldi. Shuningdek, 11-sinf bitiruvchilarining 1601 nafariga oltin va

172 nafariga kumush medallar topshirildi.

Maktab bitiruvchilarining 1238 nafari muddatidan oldin talabalar safiga qabul qilindi. Ulardan TOP-1000 talikka kirgan oliy ta'lim muassasalariga 472 nafar o'quvchi o'qishga kirdi.

yo'l qo'yib kelgani rost. Endi oshna-og'ayni-chilikka yo'l qo'yilmaydi. Har bir fanning metodik kengashi bor. Metodik kengash bininchisi navbatda xalqaro olimpiadada o'quvchisi g'olib chiqqan yoki o'zi ishtirok etgan o'qituvchiga, shuningdek, oliy toifali o'qituvchiga dars soati ajratadi. Masalan, oliy toifadagi o'qituvchi metodik kengashdan 1,5 stavka dars soati so'rashi mumkin. Qolgan dars soatlari bininchisi, ikinchi toifali, mutaxassis o'qituvchilarga beriladi. Bunda kechagina oliy ta'lim muassasasini bitirib kelgan yosh o'qituvchi ishsiz qolmasligi kerak. Bu masalani metodik kengashning o'zi hal qilishi lozim. So'ngra bu taqsimot maktabdagagi pedagogik kengashga olib chiqiladi. Pedagogik kengash qarori bilan dars soatlari tasdiqlanadi. Ba'zi maktablar da direktor o'rnbosari yoki direktorning o'zi dars taqsimotiga aralashib ketadi.

Dars taqsimotida talabalarga ham dars berish masalasi bor. Ba'zi maktablarda oliy ma'lumotli o'qituvchilar navbatda tursa, ba'zilarida o'qituvchi yetishmaydi. O'qituvchi yetishmaydigan maktablarga 3-kursdan talabalarni ishga olish mumkin.

- Navbatdagi va navbatdan tashqari attestatsiya test sinovlarida 50 ball natija ko'rsatgan, toifasi yo'q o'qituvchi rahbarlik, aniqrog'i, direktor o'rnbosari lavozimida ishlashi mumkinmi?

- Yangi tartibga ko'ra, maktab direktori o'rnbosari o'zi tayinlaydi. Oldinlari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rnbosari tuman ma'naviyat va ma'rifikat markazi rahbari suhabatidan o'tganidan keyin tayinlanardi. Endi bu tartib bekor qilindi. Maktab direktori jamaa ichidan munosib o'rnbosarni o'zi tayinlaydi.

- Maktabda qarindoshlar rahbarlik lavozimlari ishlashi mumkinmi?

- Albatta, mumkin emas. Bu qonun bo'yicha manfaatlar to'qnashuviga olib keladi. Maktab

direktori o'z qarindoshini nafaqat rahbarlik vazifasiga, balki moliyaviy ishlar bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik ishlari bo'yicha mudir yoki qorovul vazifariga ham ishqga olishi mumkin emas.

- Maktablarda yangi o'quv yiliga tayyor-garlik qanday bo'idi? Qancha maktab qurildi, qancha o'quvchi o'rni yaratildi?

- Bu yil respublika budget mablag'lari hisobidan Samarqand shahar Qorasuv massivida 1680 o'rinci Urgut tumani Mergancha mahallasida 990 o'rinci yangi maktab binolari qurilmoqda. Shuningdek, viloyatda 32 ta maktabda rekonstruksiya va qo'shimcha binolar qurish ishlari olib boriliyapti. Maktablarda 10 mingdan ziyod yangi o'quvchi o'rni yaratilyapti. Bu yil 45 ming nafar o'quvchi maktabni bitirgan bo'lsa, 88 ming nafar bola bininchisinfaga o'qishga kelyapti. Bu yana shuncha yangi o'quvchi o'rni yaratish kerak degani. Bu muammoni hal qilish uchun koeffitsiyenti yuqori bo'lgan maktablarga qo'shimcha binolar quryapmiz. To'g'ri, ta'mortalab maktablarimiz bor, ammo bininchisinfaga o'qishga binolar qurish masalasini yo'iga qo'yayapmiz. Buning uchun 42 milliard so'm sarflanyapti.

Shuningdek, yangi o'quv yilidan boshlab 1-sinf o'quvchilariga informatika fani o'tiladi. Shu bois kompyuter xonalarini tayyorlashimiz kerak. Yaqinda respublikadan 140 ta kompyuter jamlanmasi yetib keldi. Hozir joylarga tarqatilyapti. Yana 100 dan ortiq kompyuter jihozlari mahalliy hokimliklar tomonidan olib berilyapti.

3, 6, 7, 10-sinf darsliklari deyarli to'liq yangi landi. 1, 2, 4-sinflar uchun yangi darsliklari kelapti. Har yili 1-sinflarga beriladigan "Prezident sovg'a"lari bu yil vaqtida yetib keldi va biz deyarli barcha tumanlarga tarqatib bo'ldik.

Aytgancha, aholi sonini hisobga olib, kelgusi yilda Qorasuv massivida yana bitta maktab qurishni rejalashtiryapmiz.

Xurshida ERNAZAROVA
suhbatlashdi.

5

6

Bo'lib qolayotgani ham, afsuski, haqiqat.

NAJOT TA'LIMDA

(Yangi o'quv yili arafasidagi o'ylar)

Bilamizki, maktab ta'limga doim davlat siyosati darajasida e'tibor qaratib kelimoqda. Yurtboshimizning sohani tubdan isloh qilish va ta'limg sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qancha farmonlari qabul qilinayotgani, o'qitishning yangicha milliy tizimi joriy qilinishi, ilg'or mamlakatiarning tajribalari o'rganilayotgani ham fikrimizni isbotlaydi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ta'limg tizimida sustakashlikka yo'l qo'yayotgan yoki loqaytdik qobig'iidan chiqa olmayotganlar yo'q emas.

To'g'ri, o'tgan choraq asrdan ziyod vaqt mobaynida ta'limga ulkan yutuqlarga erishdik. O'quvchilarimiz fan olimpiadalarida, sport va san'atda jahon maydoniga chiqmoqda. Bugungi kunda o'zbek bolalarining jismoniy va aqliy salohiyatiga, erishayotgan natijalariga dunyo tan bermoqda. Afsuski, bu natijalar mamlakat miyosida tahlil qilinganda, umumiy o'quvchi soniga nisbatan juda ozchilikni tashkil qiladi.

Bizda haliga qadar past koefitsiyentda ishlayotgan, tanlov va olimpiadalar u yodqa tursin, hatto bir o'quvchisi ham olygoq kira o'rganilayotgan maktablar mavjud. Maktabni bitirayotgan o'quvchilarining teng yarmi chalasavod ekani, biror tashkilotga ish so'rabsborganda ariza yozishni eplay olmayotgani, chet ellarda til bilmasligi yoki tayinli hunari yo'qligi sabab qora ishchi



bo'lib qolayotgani ham, afsuski, haqiqat.

Shu sababli mamlakatimiz rahbariyati ta'limg tizimiga o'zgarishlar kiritish kerak, degan xulosaga keldi. Buning natijasi o'laroq, maktablarda islohotlar amalga osha boshladи. Jumlahdan, maktablar elektron kundalik tizimiga o'tdi, darsliklarning yangi avlodiy yaratilmoqda, pedagoglarni ishga qabul qilish va o'qituvchilar malakasini oshirishda yangicha talablar qo'ymoqda, baholash tizimi va

imtihon o'tkazish tartibi yanagi bosqichga o'tmoqda, ta'limg muassasalarining moddiy texnik bazasi yaxshilanmoqda, o'qituvchilar mavqe oshirilib, daxisizligi konstitutsiyasi darajasida ta'minlanmoqda.

Bu kabi yaratilishi ko'zda tutilgan yengillik va imkoniyatlar har bir o'qituvchi va rahbar xodimlari quvontirishi, ruhlantirishi tabiiy. Bundan tashqari, Prezident-tizimning saylovoldi urchashuvlarida ham endililikda maktabni bitiradigan har bir o'quchining bir tilni va bir kasbni mukammal o'rganib chiqishi, o'quvchilar oylik maoshihing oshirilishi, ularning sog'iiklarini tiklashi uchun turli imtiyozlar, darsliklarning bepul berilishi, maktablarning to'liq zamoniaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi kabi masalalar ko'tarildi. Shunday ekan, har bir o'qituvchi yangi o'quv yilini boshlash arafasida vijdoni oldida shu kabi savollarga javob berishi zarur. Xo'sh, men o'z kasbimning yaxshi mutaxassisini bo'ldimmi, vazifamni vijdonan ado etiyapmanmi?

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, najot ta'limga, najot bilimda. Mamlakatimizda ta'limg olayotgan barcha o'quvchilarining kelajak taqdiriga biz, pedagoglar javobgarmiz. Yangi o'quv yili oldidan o'zimizni qayta tahlil qilaylik.

Feru TOG'AYEVА,
xalq deputatleri viloyat Kengashi deputati,
xalq ta'limi a'lochisi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TIZIMI XODIMLARI UZLUKSIZ MALAKA OSHIRADI

Joriy yilning yanvaridan boshlab maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining har yili malaka oshirishga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etilgan. Bunda maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlariga "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasidan mustaqil ro'yxatdan o'tish va tasdiqlangan rejaga muvofiq malaka oshirish ta'limg tashkilotlari ishdan ajralgan holda (offline) yoki "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida ishdan ajralmagan holda (online) malaka oshirish imkoniyati yaratilgan.

Bugungi kunda viloyat pedagog xodimlarining 60279 nafari malaka oshirish uchun ro'yxatdan o'tib, 15662 nafari hududiy markazda, 15166 nafari onlayn platformada malaka oshirib, tegishli sertifikatga ega bo'lgan. Ya'ni, viloyat bo'yicha maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini malaka oshirishga jalb qilish rejasiga 30-iyun holatiga 51,1 foizga bajarilgan.

Bu haqda viloyat Matbuot uyida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.

- Viloyat pedagoglarni yangi metodika larga o'rgatish milliy markazida 2023-yil 30-yanvardan 16-iyunga qadar "Singapur metodikasi" bo'yicha qisqa muddati maqsadli o'quv kurslari tashkil etildi, - dedi markaz direktori A'lamjon Ibragimov. - Singapur tajribasi asosida milliy markazda o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlari

singapurlik tajribali mutaxassislardan mahorat darslari tashkil qilinib, tingevochilarining rahbarlik qobiliyati, bilimi va tajribasi oshirildi. Ushbu o'quvlarda tuman (shahar)lardagi 808 ta maktabdan 237 nafar maktab direktori, 314 nafar direktor o'rnbosari, 264 nafar fan o'quvchisi ishtirok etdi.

Bo'lib o'tgan matbuot anjumanida onlayn malaka oshirish tizimining afzalligi, ya'ni pedagog istalgan vaqtida platformaga kirib, o'quv darslarni yuklab olishi mumkinligi haqida gapirildi. Shuningdek, hali bu boroda muammolar borligi, lekin shunga qaramay, bundan buyon har yili barcha maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlarining malakasi uzluksiz oshirib borilishi ta'kidlandi.

O'z muxbirimiz.

YOSHLARGA YETVOLING – BOSHQA YO'L YO'Q

Tan oling, bugun farzandingiz bilan shug'ul lanishga, unga tarbiya berishga kuchingiz yetmayapti. Tabiiyki, gap jismoniy kuch haqidada emas. Masala ancha chuqur va ko'pincha o'zimiz tan olmaydigan holatga keldi.

Odatda, biz, yoshlar tarbiyasi deganda faqat nasihat berishni tushunib goldik. Uzoq yillik bunday tarbiya, ya'ni yuqorida turib, ularni har tomonlama boshqarishga urinish qobig'iidan chiqib keta olmayapmiz. Yoshlarining kitob o'qimasligi, mehnat bilan yetarli shug'ullanmasligi va qator qusurlari haqida gapirish, bundan yozg'irish asosiy mavzumizga aylanlang, desam, xato bo'lmaydi.

To'g'ri, bu masalada yutuqli tomonlarni ham aytib o'tamiz. Ammo aksarsa holatlarda umumiy qarashlarimiz bir – yoshlardan yozg'iramiz. Lekin ularni tinglab ko'rdikmi? Nega ular maktabga borishni istamaydi? Borishni istaganlari ham aksariyat hollarda o'rtaq, dugonalar bilan ko'rishish xohishi bilan chegaralanadi. Olyi ta'limg muassasasi ne azob bilan tayyorlarlik ko'rib kirgan talaba nega keyin o'qishdan soviv boshlaydi? Nega ota-onalar bilan dildan suhbatlashmaydi, dilidagilarni gapirib berolmaydi? (Dars tayyorlamaslik va boshqa qator bahonalarini tufayli maktabdagagi ta'limg yozg'irish haqida gap ketmayapti), Atrof-muhit, mayjud imkoniyatlar, umuman, turli sohalar haqida ota-onalar bilan suhbatlashishni istayotgan bolalar juda ko'p, ishoning. Bugungi bolalar bir necha o'n yil ilgarigide ota-ona nima desa, shu to'g'ri ekan, boshqa yo'l yo'q, deya qarab o'tirmaydi.

Stomatolog shifokorga borganda hozir shifokor tishni qanday davolashi haqida gapirib berib, shundan so'ng u og'riqdan xoli bo'lishini aytayotgan bolalarni kuzatdim. Besh yoshli bola qachon shunday mulohaza qilgan axir? Tug'ilganidan oq qo'lida telefon bilan ulg'ayayotgan bolalar to'g'ridan-to'g'ri ma'noda yangi asr bolalari sifatida o'zini namoyon qilyapti. U yoki bu sohadagi ma'lumotni siz gugl qidiruvga berib topguningizcha, ular sizga o'sha soha haqida aytib berishyapti. (Shu o'rinda bolaga telefon berib qo'yish zararligi haqida faktlar to'g'ri bo'lsa-da, ammo hayotda farzandlarimiz baribir shu match bilan ulg'ayayotgani inkor qilolmaymiz.) Bunday bolalarni qanday qilib faqat nasihat bilan tarbiyalash yoki ularga ta'limg berish mumkin, aytay-chi? Ko'plab talabalar, maktab yoshidagi o'quvchilar bilan gaplashganman. Keling, umumiy holda ular fikrlarining ba'zilariga to'xtalib o'tsam.



- Maktabda faqat birligina o'qituvchining darsiga qiziqb kiraman, - deydi ulardan biri. - Qolganlari menimcha, o'zlar ham nima o'tayotganini bilmasa kerak. Qaniydi, hamma fanlar ham o'shanday qiziqarli o'tilsa, bironqa darsni goldirmasdim. Ba'zi muallimlar darsning boshidan, oxirigacha tarbiya haqida gapiradi. Biz maktabga bilish olish uchun bormaymizmi? Buzga zo'r dars o'tilsin, bo'ldi, tarbiyani ota-onamizga qo'yib berishgani ma'kul.

- To'g'risi, institutga osonlik bilan o'qishga kirmadim, eh-he, qancha tunlarni bedor o'tkazdim, qancha kitob varaqladim, - deydi yana biri. - Lekin bu yerda bilimlarimni davom ettirishga imkon yo'q-ku. Ba'zi masalalarda talabalar o'qituvchilardan ko'ra ko'proq bilim va tushunchaga ega. Faqat hurmat yuzasidangina darsda qulob solib o'tiramiz. U bizga berayotgan ma'lumotlarni internet orqali hech qiyalmay, institutga kelib, vaqt sarflamay o'rganishimiz ham mumkin.

Dars o'tish uslublari, bugungi pedagogikaning oqsosq tomonlari alohida mavzu ekanligini inobatga olib holadagi urg'uni hatto ohaladagi oddiy tarbiyada, bir yo ikki nafar farzandiga saboq berishga qunt qilmayotgan ota-onalarga qaratmoqchi edik.

- Ota-onam ko'pincha biz bilan gaplashmaysan, dildagining aytmaysan, deyishadi, - bu yana bir yosh avlodning fikri. - Lekin ularga qiziqishlarim haqida aytasam, tushunishmaydi. Tuzukroq narsa bilan shug'ullansang bo'lmaydim, deyishadi. Lekin ular nima haqida gapirayotganimga hatto qiziqib ko'rishmaydi.

Rostdan shunday, qiziqib ko'rmayapmiz. Ularni tarbiyalash faqat nasihat qilishdangina iborat, deb o'yayapmiz. Ammo hammasi bo'lmasa-da, yoshlar orasida bugungi asr shiddati bilan suzayotganlari tobora ortib boryapti. Ular tushungan, bilganlarni bilmay qolyapmiz. Bilmayotganimizdan uyalib, so'rash, o'rganish o'rniga ularning o'zini aybdor qilib qo'yayapmiz. Bola tarbiyasida endi faqat yoshimiz katta ekanligi inobatga o'tmaydigan kunlar kelganini tushunishim kerak, nazarimda. Endi ular bilan tengma-teng muloq qilish uchun ham ko'proq o'qib-o'rganishimiz kerakligini anglab yetishimiz lozim. Aks holda, yoshlardan nolib yurishda davom etaveramiz.

To'g'ri tushuning, yoshi ulug'larining hayotiy tajribasi, saboqlarini inkor etmayapmiz yoki undan voz kechish kerak demayapmiz. Bu tajribalarni o'rgatishning uslubi o'zgarishi kerak demoqchimiz, xolos. Agar bundan boshqa fikrlarining bo'lsa, yozing, tahririyatga qo'nig'iroq qiling.

Gulruh MO'MINOVA.

NAVOIYSHUNOSLIKNING YANGI YUTUG'

Ilmi igna bilan quduq qazishga mengzaydilar. Bu bejiz emas. Ayniqsa, bu talqinni adabiyot ilmiga nisbatan qo'llash ilming zavorli yukini yana bir karra eslatib turadi. Chunki mumtoz asarlar tadqiqotchisi ikki bosqich orasida toplanadi, ilmda o'z yo'lini topadi. Ularning birinchisida ilm yo'liga kirgan tolib mumtoz asarlar sir-asrorini egallaydi, ikkinchisida o'zi egallagan bilimlarni yoshlarga o'rgatadi, ularga tahsiliga tortilgan asar mazmun-mohiyatini to'g'ri tushuntirib, ilm sari yo'naltiradi.



Boshqacha aytganda, haqiqiy ilm yo'lini tutgan olimni o'tmish va kelajakni bog'lab turuvchi ko'prikk qiyoslash mumkin. Chunki yosh avlod o'tmishga ustozlar nazari bilan boqadi, uning o'gitlari asosida mushohada qiladi, tafakkurini kengaytiradi. Zamonamiz navoyishunoslik ilmida tanqli olim, filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Shuhrat Sirojiddinovning o'ziga xos o'rni bor.

Olimning o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolariga bag'ishlangan 300 dan ortiq ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari e'lon qilingan, jumladan, 15 ta darslik va o'quv qo'llanma, 13 ta monografiya, 230 ta ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi bo'lgan Sh.Sirojiddinovga Samarqand shahrida o'tkazilgan MDH Parlamentlararo Assambleyasining yalpi majlisida Chingiz Aytmato nomidagi mukofot topshirilgan edi. Bu mukofot muallifning turkiy xalqlar adabiyoti va aloqalarini rivojiga qo'shgan hissasi e'tirofidir.

Olim umri davomida o'zbek va turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti, Alisher Navoiy hayoti va ijodini yangicha o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Uning bir necha tilda yaratigan asarları «Alisher Navoiy aqidaları», «Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik tekstologik tahlili», «Mir 'Ali Shir Nava'i the Great», «Navoiy navosidan babra olib», «Navobaxsh baytlar jozibasi», talabalar uchun mo'ljalangan «Navoyishunoslik» darsligi, «Amir Alisher», «Ilm va tahayyul sarhadli», «Navoiy zamon-doshlari e'tirofida» kabilardir. Bundan

tashqari, matnshunoslikka oid «Matnshunoslik saboqlari», «O'zbek matnshunosligi qirralari», shu bilan birga, «Hijriy va milodiy yillarni o'zaro tabdil qilish usullari», «Islam falsafasiga kirish: Kalom ilmi», «O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari», «XV - XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlari Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini», «Religiya mira», «So'fi Oloyor ilohiyoti», «She'riyatda inson ruhiy kamoloti talqini», «O'rta osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari» kabi bir qator asarları navoiyshunosligimiz yutug'i sifatida baholandi.


Bugungi kunda Shuhrat Sirojiddinov dunyoning o'nlab mamlakatlari Fanlar akademiyalari va ilmiy kengashlari a'zosi, O'zbekiston Respublikasi atamashunoslik komissiyasi raisi o'rnbosari sifatida faoliyat olib bormoqda.

Shuhrat Sirojiddinovning 2023-yilda Toshkentda "Adabiyot" nashriyotida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan "Amir Alisher. Hayoti va faoliyati" kitobi Navoiy ijodini o'rganish borasidagi ishlarni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi, deyish mumkin. Yaqinda Boku shahridagi Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasida ushbu kitobning ozarbayjoncha tarjimasi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Alisher Navoiy hayoti bilan bog'liq yangi ma'lumotlarga boy bu asar o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarga ishonchli manba, ta'lim tizimining turli pog'ona-larida adabiyotimiz tarixiga oid darsliklar yaratishda muhim qo'llanma bo'lishiga shubha yo'q.

Erkin MUSURMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor,
Tolib JO'RAYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

SAMARQAND: KECHA VA BUGUN



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

ISHGA TAKLIF ETAMIZ

Samarqand shahridagi «SEVARA-TUR» oilaviy korxonasi Ahmad Al-Farg'oniy ko'chasi 6-uyda joylashgan «SEVARA» mehmon-uyida farrosh vazifasida (gornichnaya) ishlash uchun xotin-qizlarni yoshidan qat'i nazar, suhbat asosida ishga taklif etadi. Ishlash uchun hamma sharoitlar mavjud (1 sutka ish, 2 sutka dam olish, 4 mahal ovqat bilan ta'minlanadi, mehmonxona 5 xonadan, 10 ta joydan iborat).

Murojaat uchun telefon: (90) 224-19-51.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahri davlat xizmatlari markazidan 2018-yil 15-avgustda 629776 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "FAXOD GAZ QUALITY TRADE" mas'uliyati cheklangan jamiyat (qisqartirilgan nomi: "FAXOD GAZ QUALITY TRADE" MCHJ) jamiyat ta'sis chilarining 2023-yil 16-avgustdag'i 1-sonli umumiy yig'ilish qaroriga asosan ixtiyoriy ravishda tugatilmogda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

Jamiyatning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand shahri Farhod qo'rg'oni. 1-yo'lak-4-uy.

Jamiyatning soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR 305704504).

Buxoro shahri davlat xizmatlari markazidan 2021-yil 9-avgustda 1024000-reestr raqam bilan ro'yxatga olingan "BIOMED-BUKHARA" mas'uliyati cheklangan jamiyat (STIR 308762336) o'z ustav fondi miqdorini 200 000 000 (ikki yuz million) so'mdan 15 000 000 (o'n besmillion) so'mga kamaytirmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'veolar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 32-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Madjidov Mirzoumidjon Xamrokulovichaga (2022-yil 6-dekabrda chop etildi) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Safarov Pirnazarga (2020-yil

2-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Zaripova Mukadasga (2022-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Sharipov Murodboya (2022-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy. Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Abduraxmonov Sharof Abdurashidovichga (2022-yil 27-dekabrda chop etildi) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Feruza Zoirovna Djavadovnaga (2017-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan meroxo'rlarning Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyat bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Kushnazarov Kuzigul Zarifovnaga (2016-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Yonimizdag'i odamlar

Oramizda shunday insonlar borki, ular hamisha xalqning dar-di bilan yashaydi. Kishilarga yaxshilik ulashadi, muammolariga yechim topadi, birovlarning tashvishini o'ziniki deb biladi. Mana shunday olyianob insonlardan biri Bahiddin Shamamatovdir.

Ibratli inson

B.Shamamatov 1940-yilda Nurota tumani Bag'ojot qishlog'ida dunyoga keldi. Qishloqdag'i o'rta maktabni bitir-gach, Samarcand davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirib, uni muvaffaqiyatlari tamomladi.

1957-1964-yillarda Qo'shrabot, Kat-taqo'rg'on tunmanlaridagi maktablarda o'qituvchi bo'lib ishladi. So'ngra Kat-taqo'rg'on tunmani Yoshlar ittifoqi birinchi kotibi, viloyat partiya qo'mitasini tashkil bo'lim mudiri lavozimlarida faoliyat yuritdi. Qo'shrabot va Kattaqo'rg'on tunmani partiya qo'mitasining ikinchi kotibi lavozimlarda mehnat qildi.

1991-yilda Xalq demokratik partiya-si Kattaqo'rg'on tunmani kengashi raisi lavozimiga saylanib, 2000-yilgacha ushbu vazifada samarali ishladi. Keyinchalik Miyonqol mahallasida keksalar va nuroniyalar guruhiга rahbarlik qildi. U qayerda ishlamasin, o'zingin rahbarlik qobiliyatini ko'rsata oldi. Yurish-turishda odamlarga ibrat bo'ldi.

El-yurt fidoyisi Bahiddin Shamamatovning halol va samarali mehnati humumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Ustoz "Hurmat belgisi" ordeniga, 1-darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi.

Bahiddin aka go'zal fazilatlari bilan boshqalaridan ajralib turadi. U kishi mohir notiq, chuqur bilim va hayotiy tarjibaga ega inson. Davralarda ibatomuz fikrlari bilan kishi qalbiga zavq baxsh etadi. Bu hayotning past-balandi,



turmush ikir-chikirlaridan yaxshi xabar-dor bo'lganidan va ko'pning ichida yur-ganidan darakdir. Negaki, hamisha xalq dardida yurgan insonlarga hammaning ko'ngliga yo'l topa oladi.

Ayni damda keksal gashtini surayotgan Bahiddin aka hamon odamlarning dardi bilan yashamoqda. U kishinikiga bir borganimda qo'shni- laridan bir qanchasi betob bo'lib yotganini aytib qoldi. Kasali bor xonadonlarga birma-bir kirib chiqdik, ayrimlari nogiron ekan. Barchasiga tegishli tavsiyalar berib, qalbidagi g'uborlarni tozalashga harakat qildik. Ularning kayfiyatini chog' bo'lib ketdi.

Bahiddin aka o'zingin muborak 83 yoshini qarshi olmoqda. Ustozga uzoq umr, baxt-saodat tilaymiz. Farzandlari nabiralar rohatini ko'rib yuring.

Zayniddin NORMAN.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 924 nusxada chop etildi. Buyurtma 444. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Navbatchi muharrir:

A.HAYDAROV.

Navbatchi:

S.MARDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.